

O'G'UZLAR TURMUSH TARZI

G'aniyev M.

Guliston davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik" kafedrasida magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14528752>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy qavmlardan biri bo'lgan o'g'uzlarning boshqaruv tizimi, turmush tarzi, din va e'tiqodi va shaharsozligi haqida turk, arab, rus olimlarining tadqiqotlari yoritib o'tilgan. Bundan tashqari bu xalqning tashkil topishi haqidagi asosiy manbalar ko'proq O'g'uz Xoqon haqidagi afsonalarda mavjudligi bilan ajralib turishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'g'uzlar, O'g'uz Xoqon, E'tiqod, Islom, Tangrichilik, Ibn Fadlan, Faruk Sumer, V.V.Bartold, shaharsozlik, Kultegin bitigi, Yangikent shahri.

OGHUZ LIFESTYLE

Abstract. This article examines the governance system, lifestyle, religion and beliefs, and urban planning of the Oghuz, one of the Turkic peoples, as discussed in the research of Turkish, Arab, and Russian scholars. Furthermore, it highlights that the primary sources regarding the formation of this people are predominantly found in the legends concerning Oghuz Khagan.

Keywords: Oghuz, Oghuz Khagan, Belief, Islam, Tengriism, Ibn Fadlan, Faruk Sumer, V.V. Bartold, Urban planning, Kultegin inscription, City of Yangikent.

ОБРАЗ ЖИЗНИ ОГУЗОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются исследования турецких, арабских и русских ученых, посвященные системе управления, образу жизни, религии и верованиям, а также градостроительству огузов, одного из тюркских народов. Кроме того, подчеркивается, что основные источники о формировании этого народа в основном содержатся в легендах об Огуз Хаакане.

Ключевые слова: Огузы, Огуз-каган, вера, ислам, теология, Ибн-Фадлан, Фарук Шумер, В.В. Бартольд, градостроительство, надпись Культегина, город Янгикент.

Manbalarda O'g'uzlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil tasvirlar (qarashlar) bor. Bular ularni odatda kamsituvchi gaplardir. Buning sabablari boshqacha bir dunyoqarashga egaligi va bu holat mualliflarning turmush tarziga mos kelmasligi bo'lsa kerak. Bu mavzuda O'g'uzlarning yomon tabiatli, johil va qattiq odamlar ekanligi [1. s. 116], mag'rur yuzli, g'amgin, g'arazgo'y va hasadgo'y insonlar ekanligini [2. s. 55] aytgan mualliflar ham bor ekan. Shunga qaramasdan, mualliflar unlarning jangari, jasur ekanligini ham ta'kidlab o'tadilar.

O'g'uzlarning dunyoqarashi O'g'uz xoqonning vasiyati orqali shakllangan ekan. Uning vasiyatga ko'ra: O'g'uzlar doimiy ko'chmanchi hayot tarzida yashab, yerlarini o'zgartirib

turishlari hamda dam olmasdan qishin-yozin otlar bilan sayohat qilishlari kerak. Agar shunday qilishsa, sut-qatiqlari, qimizlari kamaymaydi va boy bo'ladilar. Avlodlari yoyilib dunyoga hukmdor bo'ladilar. Agar bunday qilishmasa, kambag'allashib boshqa millatlar bilan aralashib tilini va odatlarini unutadilar [3. s.28].

Usmon Turonning so'zlariga ko'ra Turk jahonga hokimligining dastlabki g'oyasining asosi O'g'uz Xoqon afsonalariga borib taqaladi. Aniqki, ularning dunyoni fath qilishi buning natijasidir [4. s. 143]. Bahovuddin Ogelning bergan ma'lumotiga ko'ra O'g'uz Xoqonning Suriyadagi vaqtida o'g'illarining topishi uchun sharqqa kamonni, g'arbga o'qlarni ko'mdiradi va bu bilan ularni "kamonning ko'kda sharqdan g'arbga qarab tortilishi" ya'ni sharqdan g'arbga qarab butun dunyoga hukmron qilinishi kerak degan g'oyani jahonga hukmronlik qilishi bilan bog'laydilar.

Uyg'ur manbalarida O'g'uz Xoqon dostonida o'g'uzlarning [5] Ko'k Tangrichilik diniga e'tiqod qilishi keltirib o'tiladi. Yabg'ulik ya'ni Turk xoqonligi zamonida ham bu dinga sig'ingan. Ular ham ulug' bir yaratuvchining borligiga ishonardilar. Uni boshqa Turklarda aytilgani kabi "Tangri" [6. s. 378-387] deb ataydilar.

Ibn Fadlan bu mavzuda o'g'uzlarning biri zulmga duchor bo'lganda boshini qo'llarini yuvmasligi, ularning suvdan foydalanmasligini ko'rsatadi. Bir kishining Qur'onni qiroat bilan o'qiyotganida uni tinglayotgan boshqa bir kishiga bu manzur bo'lganligi va undan o'qishni davom ettirishini istaganligi aytilmoqda. Tinglayotgan kishi tarjimon orqali "Robbimizning xotini bormi?" deb bergan savoliga va javoban Qur'on o'qiyotgan kishining bu haqida so'rash katta gunoh ekanligi, tasbeh va istig'for aytish kerakligini ta'kidlab o'tgan. Bu ishlarning o'g'uzlarda odat tusiga kirganligi va "Subhanalloh va la ilaha illalloh" kalimasini eshitgan har bir inson uni takrorlab qo'yarkan. Ayniqsa ularning beylariga "Ey Robbim" deya xitob qilishlari haqida [7. s. 10-11] ma'lumotlar bor. Bundan o'g'uzlarning Islom dinini yaxshi bilmasligi anglashiladi. Ammo Ibn Fadlanning o'g'uzlarni yaxshi tanimasligi, beylarini "Rabbim". deb aytganligi haqidagi ma'lumoti bunga guvohlik berib turibdi. Ibn Fadlan o'g'uzlarda mayyitlarni dafn qilish odati bilan bog'liq katta chuqur qaziganligi, mayyitga kiyim kiydirib, kamarini taqib, kamoni va boshqa anjomlarini kiydirib, qo'lga ichida sharob to'la qadah tuttirganligi manbalarda uchraydi. Undan keyin boshqa ashyolarini ham olib kelib bu chuqurni to'ldirganligi qayd etilgan. Uning ortidan ovqat to'kish odatlari ham bor ekan. Boyliklarini ko'rsatish uchun hayvonlarining boshlari, oyoqlari, terisi, quyrug'idan tashqari barcha a'zolari mozorning atrofiga osib qo'yiladi. Bu hayvonlar jannatga ketayotganda minish uchun kerak bo'lar ekan. Agar o'lgan kishi jangchi bo'lsa qancha odam o'ldirgan bo'lsa, o'shancha suratini chizdirib qabrning atrofiga qadab chiqiladi. Bular jannatda xizmatkor bo'lar ekan. Agar mayyitning ortidan qurbonlik qilish kechiktirilsa ichlaridan bir mo'ysafid tashviqot olib borib o'lgan kishini tushida ko'rganini aytib, bu ishlaridan xursand emasligini, bildirar emish. Natijada hayvonlarni qurbonlik qilishga majbur bo'lar edi.

Agarda mayit kambag'al bo'lsa, uni faqatgina ko'mib qaytib ketilar ekan. O'g'uzlarda hayvonlarni qurbon qilish odati so'yish orqali emas, qo'ylarni yoki echkilarini o'lganiga qadar boshiga urib qurbonlik qilinar edi.

"Hudud ul olam" asarida o'g'uzlarning o'z oralarida o'zlaridan boy odamni juda ham hurmat qilishi, ayni damda tabiblarni obro'-e'tibori yuqori darajada turar ekan [2].

Faruk Sumerning so'zlariga ko'ra tabiblarning kelajakni oldindan ko'ra olish xususiyati borligini, o'g'uzlarning dostonlarida kelgan "Korkut Ota" ning bulardan ekanligi keltiradi [6. s. 381]. Bu xol o'g'uzlarning Shomonizm e'tiqodiga sodiq bo'lganligi haqidagi qarashni quvvatlaydi.

O'g'uzlarda bir kishi kasal bo'lib qolsa, agar u boy oiladan bo'lsa, uni oilasi bilan u yerda uzoqda bir chodir tikib, to sog'ayguncha ular bilan aloqa qilinmaydi. Agar u kambag'al bo'lsa, sahroga olib chiqib tashlangan.

O'g'uzlarda Islom dini haqida Ibn Fadlan shunday hikoya aytadi: bir Kichik Yinal ismli qabila boshlig'i musulmon bo'ladi, faqat xalqi u dinini o'zgartirgani uchun endi bizga hukmdorlik qilolmaysan deydi. Shuning uchun yana islomni tark etishga majbur bo'ladi. Mazkur sabablar tufayli Ertug'ul ismli sarkarda Xalifani ziyorat qilishga borganida Xalifa uni islomga da'vat qilganida men yaxshilab o'ylab ko'rib keyin javobimni aytaman deydi [7. s.14,16].

Qadimgi Turklar shaharni "baliq" deb atagan. Qoraxoniylar va o'g'uzlar orasida bu so'z "kent" deb atalgan. Bu so'z "qishloq" [8] ma'nosini ham anglatadi. "Baliq" so'zi o'g'uzlarda loy ma'nosini ham beradi. "Balchiq" so'zi shu so'zdan paydo bo'lgan.

Kultegin tosh bitigining tepa qismida "To'qqiz O'g'uz millati o'z millatim edi. Osmon, yer topolmay menga dushman bo'ldi. Bir yilda 5 marta jang qildik. Avval "Togu Baliq" shahrida jang qildik" [9. s. 24-25, 12, 13,14], degan ma'lumoti berilgan. Ushbu ma'lumot orqali biz o'g'uzlarning Ko'k Turklar davlati davrida "Togu Baliq" nomli shahari bo'lganligini bilishimiz mumkin.

"Hudud ul Olam" asarida o'g'uzlarda shaharlar bo'lmasligi faqat chodirlarda istiqomat qilishi haqida gap ketadi [10. s.181]. Arab tarixchisi Idrisiyning keltirgan ma'lumotlarida ularning o'lkasida tog'larning ko'pligi va ularning tepasida qal'alarning mavjudligi bo'lib u yerda muhofizlar doimo qo'riqlov xizmatida bo'lganligini keltiradi.

Ma'sudiyning "Muruj az-zahab" nomli asarida Orol ko'li qirg'og'ida yashagan Turkklarning Yangi shahar (Yangikent) nomli bir markazlari bor. U yerda musulmonlar ham yashasada ammo ko'pchilik aholi Turkklardir.

Bu hududlarda ko'chmanchi va o'troq yashaydigan o'g'uzlarning mavjudligiga doir dalillar bor. Ibn Xavqal bu haqida Sabron shahrining o'g'uzlar bilan tinchlik sulhi hukm surayotgan vaqtida musulmonlarning tijorat qiladigan shaharlari hisoblangan deydi. Faruk Sumer

keltirib o'tgan ma'lumotlarda o'g'uzlarning X asrda uchta shahri bor edi. Bular Yangikent, Jand va Juvara (yoki Huvara) edi. Keyinchalik bularga Sabron, Qorachuq, Sig'noq va Sutkant shaharlari qo'shilgan. Yangikent X asrning eng muhim tijorat shaharlaridan biri bo'lib O'g'uznoma dostonida O'g'uzxon tarafidan ustozlari Irkil xo'jaga berilgan aytiladi. Tarixchi Emil Esin Yangikent shahrining Ko'kturklar davlati davrida bunyod etilgan deydi.

V.V.Bartold bu haqida o'g'uz hukmdorining Sirdaryo daryosining quyi oqimida yashaganini va qish faslini shu yerda o'tkazishini aytmoqda. Unga ko'ra Somoniylar bilan chegara shaharlari Sabron bo'lgan. X asrda Somoniylarning o'g'uzlar davlatiga qarshi fath harakatlarini olib borsada ularga bo'ysunmagan shaharlar ham mavjud bo'lgan.

Bu shaharlarning boshida Yangi Qishloq nomli shahar bo'lib, Sirdaryo daryosiga 6-7 km, Orol ko'liga 2 kunlik yo'l, Farob (O'tror)ga 20 kunlik yo'l, Xorazmga 10 kunlik masofada joylashgan edi. Hozirgi kunda bu shahar Jand shahrining tarkibida joylashgan [11. s.270-271].

REFERENCES

1. IDRISI, *Nüzhet el-müştaş fi ishtirok el-âfâk*, (Çev. R. Şeşen), *İslam Coğrafyacılarına Göre Türklerindir ve Türk Ülkeleri*, Türk Tarih Kurumu, Ankara 2001.
2. *Hududül-Alem Mine'l Meşrik ile'l-Magrib*, (İngilizceye Çev. V. Minorsky, Türkçeye Çev. Abdullah Duman-Murat Ağarı), Kitabevi, İstanbul 2008.
3. YAZICIZADE ALİ, *Tevârih-i Âl-i Selçuk*, (Haz. Abdullah Bakır), Çamlıca Yayınları, İstanbul 2009.
4. 4.TURAN, Osman, *Türk Cihan Hakimiyeti Mefkuresi*, C. I, Nakişlar Yayınevi, İstanbul 1978.
5. ARAT, Reşit Rahmeti; W. Bang, *Oğuz Kağan Destanı*, Burhaneddin Basımevi, İstanbul 1936.
6. SÜMER, Faruk, "Oğuzlar mad.", *M.E.B.İslam Ansiklopedisi.*, C.IX, Milli Eğitim Basımevi, İstanbul 1964, s. 378-387.
7. IBN FADLAN, *Seyahatname*, (Çev. R. Şeşen), Yeditepe Yayınları, İstanbul 2010, s. 10-11.
8. SÜMER, Faruk, *Eski Türklerde Şehircilik*, Türk Tarih Kurumu, Ankara 2014.
9. ERGIN, Muharrem, *Orhun Abideleri*, Boğaziçi Yayınları, İstanbul 2011, s. 24-25
10. ÖGEL, Bahaeddin, *Türk Kültürünün Gelişme Çağları*, Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı, İstanbul 1988.
11. BARTHOLD, Vasily Vladimiroviç, *Orta Asya*, (Çev. Ahsen Batur), Selenle Yayınları, İstanbul 2010.

12. Basymovich, T. B. (2022). Some Issues on Studying Material Culture “Ancient Ustrushana”. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 11, 18-22.
13. Yuldashov, A., Toychiboev, B., & Djoraev, A. (2024). AGRO-ECOLOGICAL CONDITION OF SIRDARYA REGION AND THE WAYS TO IMPROVE IT. *Science and innovation*, 3(C3), 5-10.
14. BOSIMOVICH, T. B., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.